



## NOFILOLOGIK YO'NALISHI TALABALARIGA INGLIZ TILINI O'QITISH BO'YICHA AMALDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR TAHLILI

*Ulbosin Aripova*

*I.Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti  
assistenti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada nofilologik yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga ingliz tilini o'qitishda olib borilayotgan islohotlar tahlili haqida so'z borgan. Shuningdek, hozirgi rivojlanayotgan XXI asr ya'ni texnika asrida ingliz tilining ahamiyati beqiyosligi haqida so'z borgan.

**Kalit so'zlar:** PQ-1875-sonli qarori, PQ-5117-son qarori, ESP, EGP, Alan Uoters va Tom Xatchinson, Dudlin Evans.

XXI asr axborot-kommunikatsiya, globallashtirish va ilg'or pedagogik texnologiyalar asridir. Bu esa o'z navbatida barcha sohalarida raqobat asri bo'lib, shu asrdagi ijtimoiy-iqtisodiy, fan-texnika taraqqiyoti ta'lim tizimini modernizatsiya qilishni taqozo etadi. Yurtimizdagi ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish uchun zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanishga ehtiyoj paydo bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi prezidentining 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-1875-sonli qarori zamonaviy boshlang'ich ta'limdagi eng ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lgan qarorlardan biri bo'ldi. Ushbu qarorga muvofiq tarzda umumta'lim maktablarining 1-sinflarida og'zaki va o'yin tarzida, 2-sinfdan boshlab esa o'qish va grammatikani o'qitish bosqichma-bosqich boshlandigan bo'ldi. 2013-2014 o'quv yilidan e'tiboran ingliz tilini o'rganishni yanada rivojlantirish bo'yicha beqiyos ko'lamli ishlarni amalga oshirishga kirishildi. Ya'ni qarorning amaldagi ijrosi ta'minlandi, 1 va 2-sinflarning yoshiga va qiziqishlariga mutanosib tarzda yangi darslik va o'quv- metodik majmualar yaratildi.

Hozirgi jadal suratlarida rivojlanayotgan texnika asrida chet tilini o'rganishga ayniqsa ingliz tilini o'rganishga bo'lgan talab kundan-kunga ortib bormoqda. Shu sababli bizning yurtimizda ham bu borada anchagina salmoqli ishlar olib borilyapti. Ingliz tilini o'rganish faqat tilshunoslarning vazifasi emas, balki boshqa soha vakillari ham o'z karyerasida yuqori

natijaga erishish uchun ingliz tilini o'rganishi zamon talabi sifatida qo'yilmoqda. Shu sababli, nofilologik yo'nalishdagi talabalarga ingliz tilini o'qitish va o'rgatishda juda katta e'tibor qaratilmoqda. So'zimizning isboti tariqasida, prezident Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qarori imzolandi va amalda tadbir qilinib boshlandi. Ushbu qarorga ko'ra, 2024/2025- o'quv yiliga qadar davlat oily ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan kasbiy fanlar (xorijiy til yo'nalishidan tashqari) o'qituvchilarining 50 foizi kamida B2 darjadagi milliy va unga tenglashtirilgan xalqaro sertifikatlariga ega bo'lishini taminlash, xorijiy tillarni o'qitishni raqamlashtirish, sohaga kerakli bo'lgan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish yo'lga qo'yilib bormoqda. Endilikda nafaqat tilshunoslar balki boshqa soha vakillari ham o'z kasbining kelajak istiqboli uchun ingliz tilini o'rganishi mumkin va bu ilm fan tilida ESP (ingliz tilini maxsus maqsadlar uchun) deb yuritiladi. Bu hozirda yangi tushuncha bo'lib, bu hozirgi biz o'rganayotgan umumiy maqsadlar uchun ingliz tilini o'qitishdan anchagina farq qiladi va EGP (ingliz tili umumiy maqsadlar uchun) dan ko'ra ancha murakkabroq bo'lib ham o'qituvchidan ham o'quvchidan anchagina ma'suliyat va mehnatni talab qiladi. ESP ning paydo bo'lishi xorij tajribalariga ko'ra asosiy 3 ta sababga borib taqaladi.

Birinchi zamon talabi, ya'ni ikkinchi jahon urushining tugashi xalqaro va iqtisodiy



aloqalarning kengayishiga olib keldi, natijada AQSH ning xalqaro miqyosdagi nufuzi oshishiga va ingliz tilidan ommaviy foydalanishga olib keldi.

Ikkinchisi tilshunoslik fanlarining paydo bo'lishi va rivojlanishi, ya'ni G'arb davlatlaridagi neft tanqisligi boshqa davlatlarga nafaqat boyliklari, balki bilimlari ham kirib kela boshlashiga sabab bo'ldi. Natijada, ingliz tili boshqa davlatlarda fan sifatida o'qitila boshlandi.

So'nggisi til o'rganuvchilarga bo'lgan e'tiborning oshishi, ya'ni til o'rgatish metodlariga shunchaki e'tibor berilmay, balki til o'rganuvchilarning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda turli ta'lim strategiyalarini qo'llashni boshladilar. "Maxsus maqsadlar uchun ingliz tili (ESP) umumiy maqsadlar uchun ingliz tili (EGP) bilimlari asosiga qurilgan o'qitish bo'lib, talabalarning aniq maqsadlarini amalga oshirish uchun ta'lim fanlar yoki kasblarda ishlatiladigan ingliz tili bo'yicha tayyorlashga mo'ljallangan" deya fikr bildiradi Tomas Orr. Bu juda to'g'ri fikr deb aytishimiz mumkin, sababi ESP ni o'qitishdan oldin albatta bizga fundamental bilimlar ya'ni EGP zarurdir. Yana bir tilshunos olim Piter Stervens ESP ni maxsus maqsadli til o'rgatish tizimi deb ta'rif beradi va unga hos 4 ta xususiyatni sanab o'tadi: talabalarning ehtiyojlarini qondirish uchun mo'ljallangan talablar, ingliz tilini o'qitishning muayyan fan, ixtisoslik va kasblar bilan bog'liqligi, til va nutq mashqlarini tahlil qilishga qaratilganligi, ESPni o'qitishning umumiy maqsadlarda ingliz tilini o'qitishdan farq qilishidir.

2021-yil 6-may kuni davlatimiz rahbari tashabbusida videselektor o'tkazildi, bu

yig'ilishda asosiy muhokama qilingan mavzu oliy ta'lim bitiruvchilarining kamida 2 ta chet tilini bilishlari kerakligi ta'kidlab o'tildi. Shuningdek, bu natijaga erishish uchun chet tillarni o'rgatish bo'yicha yangicha tizimni yo'lga qo'yishning ayni vaqti ekanligi e'tirof etildi. Ixtisosligi chet tili bo'lmagan oliy ta'lim muassasalarining bakalvriat bosqichi talabalari ingliz tilini B2 darajada egallash talab qilinadi. Shu bois, hukumat tomonidan nofilologik yo'nalishidagi talabalarga chet tillarini o'qitish bo'yicha samarali islohotlar amalga oshirilmoqda.

Ingliz tilini maxsus ya'ni kasbiy maqsadlarda o'qitish jarayonida avvalo til o'rganuvchilarining ehtiyojlarini inobatga olish, o'rganib tahlil qilish g'oyasi ilgri surilgan. Natijada, XX asrning 80-yillarida Alan Uoters va Tom Xatchinson tomonidan ESP atamasi ilk marotaba qo'llanilgan. Bu tarzda o'qitishdan asosiy maqsad- talabalarning psixologik yoshiga mos o'quv materiallarini tanlash, hamda ingliz tilini kommunikant sifatida o'rganishdir. Dudlin Evans va boshqa olimlar esa ingliz tilini nofilologik yo'nalishidagi talabalarga o'qitishda ikkita metodik topshiriqlarni bajarishga e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlashgan: joriy vaziyatni tahlil qilish (Present situation analysis) va chet tilini o'rganish mazmunini tahlil qilish (Context analysis). Olimlar tomonidan ESP ni amaliyotga tadbiiq qilish va o'qitish nazariyasida 3 ta asosiy prinsiplar ajratib ko'rsatiladi: ta'lim mazmunining kasbiy yo'nalganligi, ta'lim jarayonidagi samaradorlik, talabalarning fanga bo'lgan qiziqishlari.

### Reference

1. Aripova, Ulbosin. "ЭТАПЫ ИСТОРИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО И ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ." FAN, JAMIYAT VA INNOVATSIYALAR 4.14 (2024): 12-13.
2. Aripova, Ulbosin, and Dilshoda Sattorova. "EFL (INGLIZ TILINI CHET TILI SIFATIDA O'QITISH) O'QITUVCHILARI TOMONIDAN FOYDALANILADIGAN ENG YAXSHI O'QITISH TEXNIKASI VA METODLARI." Konferensiyalar| Conferences. Vol. 1. No. 12. 2024.
3. ARIPOVA, Ulbosin. "TANQIDIY FIKRLASHNING HAM JAMIYADAGI HAM TA'LIM SOHASIDAGI DOLZARBLIGI." News of UzMU journal 1.1.3 (2024): 69-72.
4. qizi Aripova, Ulbosin Muxametkarim. "DEVELOPING CRITICAL THINKING FOR WRITING ESSAYS." Results of National Scientific Research International Journal 2.10 (2023): 101-105.



5. Maksetova, Zuhra To'rebayevna, S. B. Qambaraliyev, and A. Sh Yunusov. "TILSHUNOSLIKDA FRAZEOLGIK BIRLIKLARNING O'RGANILISHI VA ULARNING TASNIFI." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 2.5 (2022): 182-186.
6. Bobojonova, Z. R., X. Maxmatkulov, and Z. Maxsetova. "INTERFERENCE ON THE SYNACTICAL LEVELS IN THE ENGLISH-UZBEK LANGUAGES." *Экономика и социум* 11 (78) (2020): 82-86.
7. Maksetova, Zuhra To'rebayevna, Usmonali Ummatali O'G'Li Raxmatov, and Firdavs Sherzod O'G'Li Abbosboyev. "Rang komponentli frazeologik birliklarning tilshunoslikdagi hususiyati." *Science and Education* 3.5 (2022): 1933-1936.
8. Makhsetova, Zuhra To'rebayevna. "Frazeologik birliklar va ularning boshqa birliklardan farqi." *Science and Education* 3.10 (2022): 668-671.
8. Ульбосин Арипова. (2024). ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ И МЕТОДЫ, РАЗВИВАЮЩИЕ КРИТИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ В КОММУНИКАТИВНОМ ОБЩЕНИИ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ У СТУДЕНТОВ НЕФИЛОЛОГИЧЕСКОГО НАПРАВЛЕНИЯ. *FAN, JAMIYAT VA INNOVATSIYALAR*, 2(17), 41–44. Retrieved from <https://www.uzresearch.uz/index.php/FJI/article/view/986>
9. Ulbosin Aripova. (2024). NOFILOLOGIK YO'NALISHI TALABALARIGA INGLIZ TILIDAGI KOMMUNIKATIV MULOQOTDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRUVCHI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA METODLAR. *FAN, JAMIYAT VA INNOVATSIYALAR*, 2(17), 37–40. Retrieved from <https://www.uzresearch.uz/index.php/FJI/article/view/985>